# JIZZAX VILOYATI FORISH TUMAN HOKIMI
# Q A R O R I

2023 - yil 1 - iyun 111-3-53-Q/23 Forish tuman hokimligi

**Forish tumani ichki xo’jalik avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida sun`iy yo`l notekisliklar va yo`l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida.**

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 25-moddalari (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 320-modda), “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-yil, 15-son, 197-modda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3127-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 28-son, 645-modda), Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022-y.) ijrosini hamda tumanda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida

**QAROR QILAMAN:**

1. Forish tuman Ichki ishlar bo`limining 2023 yil 31 martda 42/526-sonli xati ma`lumot va asos uchun qabul qilinsin va maqullansin.

1. Forish tumani hududidagi **Egizbuloq MFY 4H1232d “Egizbuloq shaxobchasi” avtomobil yo`liga** ilovaga muvofiq sun`iy yo`l notekisligi va yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

2. Tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (F.Hakimov)ga tuman hududidagi Egizbuloq MFY markaziy yo‘liga ilovaga muvofiq sun`iy notekislik va yo‘l belgisini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

4. Tuman IIB YHXB (V.Xusanov) mazkur yo‘l belgilari o‘rnatilishi hamda tuman hududida transport vositalari harakati tartibga solinishi nazorat qilib borilsin.

5. Ushbu qaror “Forish tongi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Amirov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **I.Matiyev**

Forish tuman hokimining
2023 yil 1 iyundagi
111-3-53-Q/23-son qaroriga
1-ilova

# Egizbuloq MFY 4H1232d “Egizbuloq shaxobchasi” avtomobil yo`liga o`rnatiladigan sun`iy yo`l notekisliklar joylashuvi dislokatsiyasi

| | MFY nomi | Joylashtirish joyi PK | | Soni | Yo`l belgisi nomi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Egizbuloq MFY | 2km+PK 800 | 3km+PK200 | 2 | 1.31. Sun’iy yo‘l notekisligi |